

BOLALAR TILIDAGI EMOTIV-EKSPRESSIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA VA QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

Navoiy Davlat Universiteti Tillar fakulteti

magistratura 2-bosqich talabasi

Murodova Munisa Mukammal qizi

Ilmiy rahbar : f.f.f d.(PhD) S. S. Saydullayeva

Annotatsiya

Bolalar nutqi o'zining tabiiylik va soddaligi bilan ajralib turadi. Ular til o'rgangan dastlabki davrlarida ko'pincha onomatopoeiya (tovushga taqlid) asosidagi so'zlardan, qisqartirilgan iboralardan va ko'plab frazeologik birliklardan foydalanadilar. Chunki bolalar o'zlari tushungan, ko'rgan yoki eshitgan so'z va iboralarni takrorlashga, ularga taqlid qilishga moyil bo'lishadi. Ular uchun frazeologik birliklar ham o'yin-kulgi vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Har bir inson jamiyatda ishtirok etar ekan, albatta, boshqalar bilan hamkorlik qilishda muomala madaniyati va san'atiga ega bo'lishi kerak. Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ymoqda. Muloqotga kirishish ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan biri sanaladi. U tabiiy va hayotda har daqiqada duch kelinadigan jarayondir. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofidaqilar bilan faol muloqotga kirisha boshlaydi. Bola ulg'ayar ekan, yillar o'tgan sari ongli, aqlli, har bir gapini o'ylab gapiradigan bo'la boshlaydi. Ushbu maqolada bola nutqida qo'llaniladigan emotiv-ekspressivlik va uning qo'llanilish usullari o'rganiladi.

Kalit so'zlar:Frazeologiya , emotiv-ekspressiv birliklar, lingvomadaniyatshunoslik, frazeologizmlar, iboralar , hissiy komponentlar .

GENERAL CONCEPT AND FEATURES OF USE OF EMOTIVE- EXPRESSIVE PHRASEOLOGICAL UNITS IN CHILDREN'S LANGUAGE

Navoi State University, Faculty of Languages

2nd year master's student

Murodova Munisa Mukammal qizi

Scientific supervisor: Ph.D. S. S. Saydullayeva

Abstract

Children's speech is distinguished by its naturalness and simplicity. In the early stages of language learning, they often use words based on onomatopoeia (imitation of sound), abbreviated phrases, and many phraseological units. Because children tend to repeat and imitate words and phrases that they understand, see, or hear. Phraseological units can also serve as a means of entertainment for them. Every person, participating in society, must have a culture of communication and the art of interacting with others. This task makes teaching people the ethics of communication and communication more relevant than ever. Communication is one of the abilities that is formed earlier than all other qualities in the process of socialization. It is a natural and ongoing process that occurs every minute of life. A child begins to actively communicate with those around him before his language is very well developed. As a child grows up, he becomes more conscious, intelligent, and thoughtful in his speech. This article examines the emotional-expressiveness used in children's speech and the methods of its use.

Keywords: Phraseology, emotive-expressive units, linguistic and cultural studies, phraseologisms, expressions, emotional components.

Аннотация

Речь детей отличается естественностью и простотой. На ранних этапах

изучения языка они часто используют слова, основанные на звукоподражании (подражании звуку), сокращенные фразы и множество фразеологических единиц. Потому что дети склонны повторять и подражать словам и фразам, которые они понимают, видят или слышат.

Фразеологические единицы также могут служить для них средством развлечения. Каждый человек, участвуя в жизни общества, должен обладать культурой общения и искусством взаимодействия с другими. Эта задача делает обучение людей этике общения и коммуникации как никогда актуальным. Коммуникация — одна из способностей, которая формируется раньше всех других качеств в процессе социализации. Это естественный и непрерывный процесс, который происходит каждую минуту жизни. Ребенок начинает активно общаться с окружающими еще до того, как его язык будет очень хорошо развит. По мере взросления он становится более осознанным, умным и вдумчивым в своей речи. В данной статье рассматривается эмоционально-выразительная сторона речи детей и способы ее использования.

Ключевые слова: фразеология, эмоционально-экспрессивные единицы, лингвокультурология, фразеологизмы, выражения, эмоциональные компоненты.

Kirish

Frazeologiya (yun. *Phrasis*- ifoda, ibora va logiya)- tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini , uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi yoki muayyan tildagi frazeologizmlar majmuyidir. Bugungi kunga kelib frazeologiya sohasi tilshunoslikda olib borilayotgan ko'plab izlashnishlarning tadqiqot vositasi sifatida fanda mustahkam o'rin egallab , uning taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi.Frazeologiya tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi turg'un birikmalar, ya'ni, frazeologizmlarni o'rganuvchi sohasi bo'lib , dunyo tilshunosligida XVIII asrdan boshlab chuqur o'rganish boshlandi. Tilshunoslik bo'limi sifatida frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibor frazeologizmlar tabiatini va

ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazelogiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham o'zbek tilida ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari ma'lum emas, kelib chiqish manbalarini aniq ko'rsatish ancha qiyin. A.V. Kunin fikricha "Ingliz tili frazeologizmlari aksariyatining mualliflari noma'lum bo'lib ular xalq tomonidan yaratilgan"¹.

Asosiy qism

Tildagi his-tuyg'ularning namoyon bo'lish jarayonlariga tadqiqotchilarning mantiqiy qiziqishi yangi ilmiy yo'nalish - tilning hissiy muhitiga qaratilgan hissiyotlar lingvistikasining shakllanishiga olib keldi. Ingliz va o'zbek tillarida inson hissiyotlari, asosan, shaxsning turli ruhiy holatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar yordamida so'zlashadi. Frazeologik birliklar tomonidan tasvirlangan emotsional lug'atni ifodalash vositalarini o'rganish til va nutq vositalarining butun majmuasini taqdim etish imkoniyatini beradi, shuningdek, ikkala tilning mentaliteti va psixologiyasini tushunishga yordam beradi. Frazeologik birliklarning emotsional va baholash hajmi so'zlovchining hissiy holatiga va uning qabul qiluvchiga munosabatiga qarab o'zgaradi. Frazeologik birliklarning madaniy-konnotativ semantikasi har ikki xalqning butun hayotiy tajribasi davomida shakllangan va boyigan dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Emotiv-ekspressiv frazeologik birliklar tilning hissiy-emotsional qirralarini aks ettiruvchi vositalar bo'lib, ular orqali so'zlovchi yoki yozuvchi o'zining his-tuyg'ularini, fikr-mulohazalarini ifodalaydi. Bu kabi birliklar, odatda, so'zlovchining sub'ektiv munosabatini ifodalaydi va uning tilning boshqa birliklaridan ajralib turishini ta'minlaydi. Emotiv ekspressiv birliklarning kelib chiqishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular asosan bir manba shaklida kelib chiqmaydi, va ushbu jarayonga

¹ A.V.Kunin "Modern English Phraseology Course" 1986 203p

turli omillar ta'sir o'tkazadi. Ushbu birliklarning kelib chiqishi va rivojlanishiga ma'lum xalqning madaniyati, tarixi, an'ana va urf-odatlarini uzviy ta'sir o'tkazadi. Xususan, tarixiy ta'sirni oladigan bo'lsak, qadimdan shakllangan iboralarga shaxslar, voqealar va tarixiy hodisalar o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, "*Troya otini ichkariga olib kirish*" iborasi qadimgi Yunon afsonalariga asoslangan. Bu frazeologik birlik asosan xiyonat yoki firibgarlik ma'nosini ifodalaydi. Madaniyat va xalq og'zaki ijodi ham tegishli o'rinni egallaydi. Chunonchi, xalq og'zaki ijodi — maqollar, topishmoqlar, matallar, ertaklar — frazeologik birliklar manbai hisoblanadi. Madaniy va etnografik jihatlar ko'pincha ushbu birliklarning ifodasiga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, "*to'ydan keyin qo'shiq aytish*" iborasi maqsadga erishib bo'lgan yoki kechikkan ishlar haqidagi gap-so'zlarni anglatadi. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri asosida paydo bo'lgan frazeologizmlarni uchga bo'lish mumkin:

Injil asosida yuzaga kelgan birliklar

Qadimgi afsonalar ta'sirida shakllangan birliklar

Yevropa tillaridan o'zlashgan birliklar.

Din bu madaniyatning o'zida namoyon qiluvchi bir namuna va inson tasavvurining muhim ajralmas qismidir. Shuning uchun ham ba'zan frazeologik birliklar yuzaga kelishida o'sha dindan olingan oziq ovqat va joy nomlari o'z holicha ko'chadi. Xususan, xristian dinining muqaddas kitobi Bibliya frazeologiyasi internatsional frazeologik fondning bir qismini tashkil qiladi va aksariyat Yevropa tillarida keng tarqalgan Bibliyadan olingan frazeologizmlar bibleizmlar deb ham yuritiladi. E.M. Solodukho² ishlarida ko'p tillar frazeologiyasida yetarlicha keng qatlamda namoyon bo'luvchi "frazeologik internatsionalizm"ni tahlil qilgan "frazeologik yaqinlashuv" nazariyasi Bibliya frazeologiyasiga qiziqish uyg'otadi.

"Frazeologik internatsionalizmning asosini nafaqat Rim va Grek mifologiyasi, butun shahar adabiyoti va tarixiy kiruvchi birliklar balki Bibliya

² Solodukho E.M. Theory of phraseologies. - Kazan. 1989. - 265 p

tarkibidagi frazeologik birliklar ham tashkil qiladi. E.M. Soloduxo³ frazeologik internatsionalizm o'zlashmalari manbasi va asosi tushunchalarining farqini kuzatadi va birinchi tushuncha ikkinchisiga qaraganda ancha keng ekanini ko'rsatib beradi." [4,75]. Masalan, "Havoriy bo'lish" iborasi Iso Masihning shogirdlaridan kelib chiqib, jamoatning boshqaruvchisi yoki vakil bo'lish ma'nosida qo'llaniladi. G'arb tilshunosligida bibleizmlarni o'rganish L.P. Smit⁴ nomi bilan uzviy bog'liqdir. Olim o'zining "Phraseology of the English language" kitobida bibliya iboralariga bag'ishlangan bo'limida o'rganib chiqqan. Muallif "Ingliz tilidagi bibliya iboralarining soni shunchalik ko'pki, ularni yig'ish va sanab chiqish oson vazifa emas" deya ta'kidlab o'tadi.

Miloddan avvalgi VI asrda yashagan yunon faylasufi Pifagor ham ushbu fanda ilk bor raqamlarning hisoblash va undan tashqari ma'noga ega ekanligini ham ko'rsatgan. Uning ta'kidlashicha raqamlar ilohiy ahamiyatga ega ezoterik belgilar edi. Bibliyani yahudiy va keyinchalik nasroniy o'quvchilari Pifagordan ilhom olib, barcha ilodiy usullardan foydalangan holda raqamlardan mifik ma'nolarni olishga harakat qilishgan. Shu o'rinda yetti (7) raqami ham "mukammalik" ni ifodalagan.

Xususan ushbu raqam sharq dunyosida ham o'z ahamiyatiga ega.

Yetti yot begona – cousin seven times removed ;

bir sinalgan tajriba yetti kitobdan afzal- experience is the mother of wisdom;

aziz momo olti kun- qahri kelsa yeti kun- march comes in like a lion and goes out like a lamb;

kabi birliklar xaqning madaniy hayotining bir bo'lagi, yillar davomida to'plagan boy merosi sifatida saqlanib kelinmoqda.

Har bir tilda tilning o'ziga xos milliy lazzatini ifodalovchi nutqiy figuralar yoki so'z iborolari mavjud. Frazeologik birliklar etnosning fikrlash uslubini ifodalovchi til birliklari orasida o'ziga xosdir. Frazeologik birliklar ko'pincha his-tuyg'ularni ifodalashga qodir. Ko'pchilik tuyg'uni his-tuyg'ular yoki ruhiy

³ Solodukho E.M. Theory of phraseologies. - Kazan. 1989. - 265 p

⁴ "The English language" by [Smith, Logan Pearsall, 1865-1946](#)

bezovtalik deb ta'riflaydi. Psixologiyaga ko'ra, his-tuyg'ular - bu insonning unga ta'sir qiluvchi elementlarning ahamiyatini baholashi bilan bog'liq bo'lgan tajriba. Bu tajribalar, ayniqsa, tegishli his-tuyg'ular, shuningdek, uning kutilgan talablarini qondirish yoki bajarmaslik sifatida ifodalanadi. Insonning nutqi va jismoniy holati hissiyotlarning tashqi ko'rinishi bo'lib, u insonning holatida muhim rol o'ynaydi va uning ichki dunyosini ifodalaydi. Insoniy fanlarda shaxsning hissiy sohasi filologlar, faylasuflar va tilshunoslarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslik tendentsiyalari hissiyotlar bo'yicha yangi tadqiqot sohalari, jumladan, sotsiolingvistika, kognitologiya, psixolingvistika va lingvostilistikaning paydo bo'lishiga olib keldi. Pragmatik xususiyatlar va his-tuyg'ularni ifodalash usullarini mahalliy va xalqaro tillarda o'rganish ko'payishiga qaramay, olimlar ushbu komponentga kam e'tibor berishdi. Shunga qaramay, mavzuning ba'zi qismlari boshqa tilshunoslik bilan bog'liq ishlarda qayd etilgan. Tadqiqotning ahamiyati zamonaviy tilshunoslikda emotitivlikka oid tadqiqotlarning kamligi, shuningdek, frazeologik birliklar yordamida shaxsning emotsional holatini tasvirlashning o'ziga xosligidan kelib chiqadi.

Professor S. Mo'minov⁵ o'z ilmiy izlanishlarida o'zbek muloqot xulqini ilk bor ijtimoiy lisoniy aspektda o'zbek kommunikantlari faoliyatining kompozitsion bosqichlari, kommunikantlar o'rtasidagi munosabatning milliy o'ziga xos xususiyatlari, muloqot xulqining jins, yosh, sotsial va hudud jihatidan xoslanishini atroflicha tadqiq etdi. Olimning ilmiy tadqiqotlari bevosita nutq madaniyati masalalariga bag'ishlangan bo'lib, asosan, muloqot bosqichlari, jarayonning maqsadli kechishi shartlari, muloqot ishtirokchilarining shaxs xususiyatlari haqidagi ilmiy qarashlari bayon etilgan. Z. Akbarova⁶ murojaatning inson nutqiy faoliyatidagi o'rni, mavqei, bosqichlari, murojaatni ifodalashning o'ziga xos turli shakllari, murojaat maydoni strukturasi, murojaatni ifodalovchi ekstralingvistik vositalar, murojaatning inson nutq faoliyatining ajralmas qismi sifatidagi universal

⁵ Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – B.47.

⁶ Akbarova Z.A. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – B.11.

hodisa ekanligini tadqiq etadi. Mazkur tadqiqot ishida murojaat shakllarining nutqiy jarayonlarda qo'llanilishini xoslangan va xoslanmagan leksika, xoslangan va xoslanmagan gap shakllari o'zbek tili materiallari asosida tadqiq etilar ekan, xoslanayotgan leksikani alohida ajratilgani diqqatga sazovordir. Bundan tashqari murojaat ifodalashning ekstralingvistik vositalari haqida ma'lumotlar berilgan. Olima ularni shartli ravishda tasniflar ekan, ularni uch guruhga bo'ladi:

- a) ishora harakatga asoslangan jestikulyatsion vositalar;
- b) tovushga asoslangan fonatsion vositalar;
- v) rang vositasi.

Frazeologizmlar har bir xalqning turli kontekstda tilni ifodalashning o'ziga xos usuli va nodir xazinasidir. Frazeologizmlar har bir xalqning tarixi, urf-odatlar, an'analari hamda o'ziga xosligini ifodalaydi. Tilshunoslikka ko'ra D.S. Lixachev⁷ va B. Larins milliy o'ziga xoslikni o'rganish, milliy xususiyatlarni o'zida mujassam etgan mentalitetni o'rganish zarurligini ta'kidlaydilar. Madaniyat va milliylik haqida gap ketganda, bu g'oya o'zining ahamiyati va mukammalligi bilan haqiqatdir. Ko'pincha bu holda frazeologizmlar tilni turli vositalar va til elementlari orqali ifodalashda asosiy rol o'ynaydi. Qadimgi yoki yangi bo'lishidan qat'i nazar, barcha tillarning o'ziga xos frazeologik birliklari bor, bu ularni universal tilga aylantiradi. Ular odatda qadimiy madaniy meros, ajdodlar va avlodlarning ruhiy holatini aks ettiruvchi qadimiy metafora va xalq hikmatlarini ifodalaydi va ulardan kelib chiqadi. 80-yillarda E.F.Arsenteva⁸ frazeologik birliklarni inson xarakteri, tashqi qiyofasi va aqliy qobiliyati asosida o'rganib, ularni miqdor jihatdan ifodalash va frazema-semantik guruhlarga bo'lish orqali ingliz va rus tillaridagi frazema-semantik guruhlar teng emasligini isbotladi.

Ko'pchilikning fikricha, hissiy komponentni tushunish juda qiyin. Aslida, his-tuyg'ular inson hayotiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Wierzbicka⁹ hissiyotni "fikir bilan

⁷ Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Изв. АН. Сер. Лит. и яз. М.: Изд-во РАН, 1993. Т.52. - №1. - С. 3-9.

⁸ E.F.Arsenteva "Complex modifications of phraseological units and the ways of their translation" Life and science journal 2004

⁹ Meaning, Life and Culture - In conversation with Anna Wierzbicka 2020 [Anna Wierzbicka](#), [Natural Semantic Metalanguage](#), [linguistics](#), [Semantics](#), [language](#), [Culture](#), [Typology](#), [book](#)

bog'liq tuyg'u" deb ta'riflaydi. Tuyg'ularning til elementi XX asrda paydo bo'lgan. Hissiy ekspressivlik nuqtai nazaridan gender nomutanosibligi zamonaviy tadqiqotlar uchun yangilik emas. Erkaklar va ayollar turli darajadagi his-tuyg'ularni qanday namoyon etishini va ularning har birida o'g'il va qizlar uchun ijtimoiy jihatdan maqbul deb hisoblangan ma'lum an'anaviy his-tuyg'ularni o'z ichiga olganligini o'rganish uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. Ushbu ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lgan jinsga xos hissiyotlar ko'pincha erta bolalikdan boshlangan jamiyat a'zolarida mustahkamlanadi. Fabes va Martin¹⁰ ayollarning his-tuyg'ularini erkaklarga qaraganda ko'proq ifodalash uchun namoyon bo'lishlari, ammo erkaklar va ayollarning hissiy tajribasini idrok etishda bir oz farq borligini aniqladilar. Shu sababli, his-tuyg'ularning stereotiplari adabiyotidagi izchil gender farqlari hissiy tajribaga nisbatan ko'proq his-tuyg'ularni ifodalash haqidagi e'tiqodlarga asoslanadi. Vaynik¹¹ ko'ra, "ayollar hissiy jihatdan erkaklarga qaraganda ko'proq qobiliyatli va ifodali, xususan, og'zaki ifoda bilan. Ayollar hissiy va lingvistik vazifalarni aniqroq bajaradilar, chunki ular bunday ogohlantirishlarga nisbatan sezgirroqdirlar.

Tabiiyki, ko'proq lingvistik tarkib qayta ishlanganida, ko'proq his-tuyg'ular aniqlanishi mumkin. Rus tilining milliy korpusiga ko'ra, "bosh - hamma narsaning boshlanishi" iborasi turli matnlarda ikki million martadan ko'proq uchraydi. Bu gap "Rus xalqi maqollari"da "aql-ahmoqlik" bo'limida, idiomalarning izohli lug'atida va rus tilining katta izohli lug'atida izohsiz hujjatlashtirilgan. Turli tilshunoslar frazeologik birliklar (ularning tarkibiy qismlari) va lingvistik qamrov elementlarini fan sifatida tushunishning turli usullaridan foydalanganlar. Biroq, ularning barchasi ingliz tilida insonning intellektual qobiliyatini ko'rsatuvchi frazeologik birliklar tafakkur, madaniyat, ta'lim darajasi, geografik mintaq, ijtimoiy-siyosiy tizim, diniy qarashlar va boshqa omillar bilan bevosita bog'liq deb hisoblaydi. Ingliz tiliga oid bir qancha tadqiqotlar natijalari bilan hech qanday lingvistik mezon

Collection

¹⁰ "Exploring Child Development" [Richard A. Fabes](#), [Carol Lynn Martin](#) 1991.

¹¹ Vainik, "Eesti keele väliskohakäänete semantika: kognitiivse grammatika vaatenurgast" 1995

isbotlanmasa, ular boshqa tillarni turkumlashtirishga taalluqli degan xulosaga kelish o‘rinli. insoniy his-tuyg‘ular. Biz nimani his qilishimizdan qat’iy nazar, biz buni turli his-tuyg‘ularni ko‘rsatadigan ma’lum iboralar yordamida ifodalashga moyilmiz. O‘zbek frazeologiyasida ham insonning turli darajadagi hissiyotlarini ifodalovchi misollar aniqlangan. Bularga quyidagilar kirishi mumkin: *asabi taranglashdi* - asabiylashayotganini, *bo‘shashdi* - tinchlanish yoki yuragi xotirjam bo‘lishi ma’nosini anglatadi. *qinidan chiqayozdi* - o‘ta qo‘rqinchli yoki xavotirli tuyg‘uni bildiradi. O‘zbek frazeologiyasida inson his-tuyg‘ularining neytrallashuvini ifodalovchi birliklar ham aniqlanadi: *ko‘ngli taskin topdi* – tinchlandi degan ma’noni anglatadi; u mamnun edi; u taskin topdi [M. Sadikova, 1989, s. 159]. Emotsional holatda beqaror bo‘lgan odam goh iborasi bilan ko‘rsatiladi *goh hud, goh behud – goh kayfiyatda, gohida emas* [M. Sadikova, 1989, s. 78]. Eng oliy insoniy tuyg‘u va ilohiy ne‘mat hisoblangan sevgi ko‘plab leksik, frazeologik va paremiologik asarlarda qayd etilgan. birliklar (Narzullayeva D.S.). *Tez-tez javobsiz sevgiga qaramay*, bu tuyg‘u ijobiy baholanadi: *jon dildan sevmok – jon-jahdi bilan sevmok, chin dildan sevmok, ehtiros bilan sevmok* [M. Sadikova, 1989, s. 108]. Bu misollardan yaqqol ko‘rishimiz mumkinki, har bir tilda ma’lum bir his-tuyg‘uni bildiruvchi iboralar doimo qiziqarli mavzu bo‘lib kelgan.

Emotiv-ekspressiv frazeologik birliklar boshqa frazeologik birliklardan ko‘ra, his-tuyg‘ularni yanada yaqqolroq ifodalaydi. Ularning asosiy o‘ziga xosligi shundaki, ular ma’lum bir emotsional yoki ekspressiv vaziyatda qo‘llanadi va kontekstga qarab turli xil ma’nolarni anglashi mumkin. Masalan, “qoni qaynamok” iborasi biror kishining o‘ziga nisbatan kuchli his-tuyg‘ularni, asosan g‘azab yoki hayajon holatini ifodalaydi. Frazeologik birliklarning ekspressivlik darajasi tildagi leksik vositalarga bog‘liq bo‘lib, bunday birliklar asosan xalqning hissiy holatlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Misol uchun, o‘zbek tilidagi “ko‘nglidan olmok” yoki “ko‘ngli keng” kabi iboralar insonning ruhiy holatini va munosabatlarini ifodalaydi. Ushbu frazeologik birliklarning asosiy funksiyasi —

so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida hissiy aloqani mustahkamlash. Bu birliklar, shuningdek, tilni boyitib, nutqning yanada yorqinroq va ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi. Ko'pgina emotiv-ekspressiv frazeologik birliklar qo'llaniladigan kontekstga ko'ra, ijobiy yoki salbiy ma'noda bo'lishi mumkin. Misol uchun, "ko'kdan kelgan gap" — kutilmagan va tasodifiy hodisa degan ma'noni bildiradi, va ko'pincha salbiy mazmunda ishlatiladi. Emotiv-ekspressiv frazeologik birliklarga misol tariqasida "yuragim ezilib ketyapti", "oydan oshib ketdim" va "hayotni o'zgartiruvchi tajriba" kabilar kiradi. Bu frazeologik birliklar nafaqat muloqotni kuchaytiribgina qolmay, balki so'zlovchining ichki dunyosi va hissiy holatini ham ko'rish imkonini beradi. Frazeologik birliklar tilda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki ular hissiyotlar va sub'ektiv kechinmalarning mohiyatini aks ettiradi. Matnli muloqotda kulgichlardan foydalanish oddiy vizual tasvirlardan tashqariga chiqadi; ular aytilayotgan xabarga chuqurlik va niyat qo'shuvchi emotsional ekspressiv frazeologik birliklar vazifasini bajaradi.

O'zbek tilshunosligida ham olib borilgan bir qator tadqiqotlarda o'zbek tili leksikasining emotsional ekspressiv buyoqdorlik jihatdan xarakteristikasi o'rganib chiqildi. Emotsional leksika deyilganda, azamat, o'ktam, qoyilmaqom, so'lgildoq, boplamoq, olchoq, mal'un, razil, satang, sanqi, asfalasofin, miyonqi, qoyil, do'ndirma, momoqaymoq kabi so'zlar negizining o'zi orqali anglatilayotgan voqea-hodisaga so'zlovchining sub'ektiv baho (emotsional) munosabatini anglatuvchi leksika nazarda tutilishi lozim. Holbuki hislarni atovchi (ularning atamaları bo'lgan) leksika ham ba'zan emotsional leksika atamasi bilan yuritiladi. Yuqorida keltirilgan so'zlar ma'lum tushuncha anglatishdan tashqari, so'zlovchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobiy va salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham ko'rsatib turadi. Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda so'zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi¹².

Frazeologik birliklar obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Ular badiiy, siyosiy va publitsistik

¹² O'zbek tili leksikologiyasi O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti, Toshkent: Fan, 1981. —B.160.

matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Shu boisdan frazeologizmlar tilshunoslikning alohida sohasi hisoblangan uslubshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar ixcham, ma'no jihatdan salmoqli til birligi bo'lib, davr ruhiga mos keladi, chunki milliy qadriyatlar, urf-odatlar rivoj topib borayotgan davrda so'zlovchidan har tomonlama ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Frazeologik iboralarning turli xil xususiyatlarini tashqi shaklga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda ko'proq frazeologik iboralarning tarkibidagi so'zlar soniga qarab e'tibor beriladi. Tasnif natijasida iboralar tabiatiga ko'ra nechta so'zdan tashkil topganligini aniqlash mumkin. Ko'pgina tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki so'zdan ortiq bo'ladi degan fikrlarni bildiradilar. Ammo kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq so'zlardan iborat bo'ladi. Ammo ayrim tilshunoslar bir so'zdan iborat iboralar ham bor deb fikr yuritadilar. Jumladan, professor A. Jafarovning fikricha bir so'zdan iborat iboralar idiomatik iboraning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil bo'ladi. Bu turdagi iboralar qo'shma so'z yoki yakka so'z bilan ifodalanadi, ular to'g'ridan – to'g'ri fikrni anglati olmasligi jihatdan ham qo'shma so'zlardan farqlanadi. To'g'ri bir so'z orqali ham idiomatik ma'no anglashiladi. Lekin bunday so'zlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi kerak. Bu haqda V. V. Vinogradov, A. Abakumov, A. Shaxmatovlarning fikrlari qimmatga sazovordir.¹³ Idiomatik so'zlar faqat yolg'iz so'zlardangina tashkil topib, idiomatik ma'no anglatadi. Lekin ibora aks ettirgan xususiyatlarni anglati olmaydi. Akademik V.V. Vinogradovning aytishicha, frazeologik birliklarning taraqqiyoti frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik qo'shilmalarga aylanishi kerak. Frazeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar, keyinchalik esa frazeologik qo'shilmalarga taraqqiy etib borishi kerak. Shu fikrga asoslanib Sh. Raxmatullayevning “ idiomatik so'zlar frazeologik qo'shilmalar negizida vujudga keladi” degan fikrlari asoslidir. Frazeologik birikmalar asosan so'zlar birikmasidan iborat, boshqacha

¹³ Mamatov A.E. "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi.-T.:1997.-B.37

aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanma yoki gapga teng, to'liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg'un so'z birikmalarini o'z ichiga oladi.¹⁴ Frazeologizmlarning aksariyati o'zbek tilida ham, boshqa xildagi tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari ma'lum emas, kelib chiqish manbalari aniq emas. Shu ma'noda frazeologik olim A.V. Kunin frazeologizmlarning ko'pchiligining muallifi noma'lum bo'lib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda ko'rsatib o'tgan. Ammo ba'zi frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash mumkin. Shu ma'noda frazeologiya tilning umumiy tizimiga kiruvchi mikrosistema bo'lib, bu tizim o'zida o'tmish merosni, qadriyatlarni aks ettiradi, avloddan – avlodga o'tadi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning ko'pchiligi ma'lum tilning boyish manbaidir. Frazeologik tizimni frazeologik birliklar, ularning asosiy komponentlari o'rtasidagi munosabatni tashkil etadi. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zlardan tashkil topgan, ma'no va shakl jihatdan turg'un bo'lgan so'zlar bog'lanmasidir. Frazeologizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llaniladi hamda tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nosi muayyan nutq jarayonida oydinlashadi. Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gap shaklida bo'lsa ular nutq birligi bo'lgan gaplardan farq qiladi. Ular lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir.

Ma'lumki, har qanday frazeologik birliklar so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. So'z esa leksikologiyaning tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Leksikologiya va frazeologiyaning o'zaro bog'liq sohalaridan ekanligi shunda namoyon bo'ladi, frazeologik birlik komponentlari bo'lmish so'zlar tahlilida, albatta, leksikologiyaga oid ma'lumotlarga murojaat qilinadi. Shuningdek, ko'p yillar davomida frazeologiyani leksikologiyaning tarkibiy qismi sifatida o'rganilishi ham bu ikki soha bevosita bir-biri bilan aloqadorligini isbotlaydi. Semantikada tadqiq etiladigan leksik ma'no xususiyatlari, aynan frazeologik birliklarning semantik


¹⁴ Yo'ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir.-T.:O'TA.1992.3-son.-B.37-42.

o'ziga xosliklarini ifodalash va frazeologik sohada ma'noning turli tiplarini ajratishga xizmat qiladi.

Frazeologik birlik tarkibidagi so'z har doim ham o'zining morfologik xususiyatlarini yo'qotmaydi, morfologiya saqlanib qolgan va yo'qotilgan xususiyatlarni o'rganish imkonini beradi. Frazeologiya tarkibida turli xil strukturali ya'ni so'z birikmasi shaklidagi va gap shaklidagi birikmalar kiritiladi. Sintaksisga oid ma'lumotlardan yuqoridagi kabi birliklar grammatik va funksional tahlilida foydalaniladi. Frazeologik stilistika, frazeologik birliklarning uslubiy xususiyatlarini tadqiq etadi va bu sohada leksik uslubshunoslik tajribasiga, turli stilistik birliklar tahliliga suyanadi. Zero frazeologik birliklar tilda nominativ funksiya bajarish bilan bir qatorda, malum bir emotsionallikga, ekspressiv xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Tilning kelib chiqishi va tarixi frazeologik birliklarning etimologik tahlilida zarur qism hisoblanadi. Ingliz tilida ham boshqa tillar singari tilning milliy-madaniy semantikasini o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Chunki ular avloddan avlodga tilning o'ziga xos ichki tuzilmalarini, tabiat o'ziga xosliklari, mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy tuzilishi, san'ati, urf-odatlarini hamda tarixini ham o'zida mujassamlashtira oladi. Ularda bolalar milliy o'yinlari, pul birliklari to'g'risida, milly tabobat, ov hamda baliq ovi haqida, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida, insonning tashqi ko'rinishi, kiyinishi va turmush tarzi va ko'plab boshqa milliy mentalitetga xos mavzular aks etgan bo'ladi.

Milliy-madaniy semantika tilshunoslikning barcha bo'limlarida, morfologiyada ham sintaksisda ham hattoki fonetikda ham aks etgan bo'ladi. Faqat u millat madaniyatini bevosita aks ettira oladigan, yaxlit, so'zlashuv nutqida ko'p qo'llanadigan frazeologik birliklarda yorqinroq ifodalanadi. Frazeologiya alohida fan sifatida shakillanganig qadar u leksikalogiyaning tarkibi sifatida qaralgan. Frazeologiya muammolariga qiziqish dastlab rus tilshunoslari qiziq boshlagan bo'lsada, u alohida termin sifatida ilk bor g'arb tilshunosi Sh. Balli tomonidan qo'llanilgan. U o'zining "Stilistikadan ocherklar" va "Fransuz tili stilistikasi"

asarlarda soʻz birikmalariga yaxlit bir tizim sifatida qarab, ularning grammatik va leksik xususiyatlari, sintaktik strukturasi va atash maʼnolarining oʻziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlit qoʻllanila oladigan birlikligini isbotlashga harakat qildi. Birinchi asarda Sharl Balli soʻz birikmalarining besh turini farqlagan: - erkin birikmalar (oʻz maʼnosida qoʻllaniladigan birikmalar); - odatiy birikmalar (nisbattan erkin bogʻlangan birikmalar boʻlib tarkibiga baʼzi oʻzgartirishlar kiritish mumkin) ; - frazeologik qatorlar (bunda ikki va undan ortiq birliklar birikib yaxlit bir maʼnoni ifodalab keladi, ammo uning tartibiga oʻzgartirishlar kiritish mumkin); - frazeologik birliklar(bunda oʻz maʼnosini tamomila yoʻqotgan, - komponentlari tartibi qatʼiy boʻlgan birliklarni kiritadi. U keyingi asari “Fransuz stlistika” sida odatiy birikmalar hamda frazeologik qatorlarni erkin birikmalar va frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan . Uning bu qarashlari koʻpgina munozaralarga sabab boʻlgan boʻlsada, frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanishiga turtki boʻldi.



1-jadval.

Frazeologik birliklarning tasnifi frazeologik birliklarning oz yoki koʻproq motivatsion maʼnolariga , tarkibiy qismlarning semantik birlashuviga asoslangan . Akademik V.V.Vinogradovdan soʻng uchta asosiy turini ajratish odatiy holdir.

Frazeologik bitimlar- bular maʼnosi jihatidan bir-biriga mos kelmaydigan frazeologik birliklar , ularning butun maʼnosi tarkibiy soʻzlarning maʼnolari bilan mutlaqo asoslanmagan boʻladi.

Frazeologik birlashish- bu frazeologik birliklar , ularning yaxlit maʼnosi tarkibiy qismlarning maʼnosidan iborat va shu bilan birga tarkibiy qismlardan biri

birlashma deb ataladi. Frazelogik birlashma- tuzilishining bo'linishiga qaramay , ular umumlashtirilgan yaxlit ma'noga ega bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, milliy va madaniy frazeologizmlarning aksariyati xalqning kundalik turmush tarzi , rasm- rusumlari va urf-odatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri asosida paydo bo'lgan frazeologik birliklarning tahlili o'zlashma iboralarning bir-biriga o'xshashligini ko'rsatadi. Ular tilda hissiy ifoda vositasi sifatida xizmat qilib, turli xil so'zlashuv vaziyatlarini boyitadi. Ushbu birliklar ko'pincha ko'chma ma'noda ishlatilganligi tufayli, ularning asl kelib chiqishi va qo'llanilish shakllari ko'p hollarda murakkab bo'lishi mumkin. Frazelogik birliklar nafaqat lingvistik, balki sotsiokulturniy ahamiyatga ham ega bo'lib, milliy madaniyat va mentalitetning ajralmas qismi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1.A.V.Kunin "Modern English Phraseology Course" 1986 203p
- 10.Vainik, *“Eesti keele väliskohakäänete semantika: kognitiivse grammatika vaatenurgast”* 1995
- 11.O'zbek tili leksikologiyasi O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti,Toshkent: Fan, 1981. –B.160.
- 12.Mamatov A.E.”O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi.-T.:1997.-B.37
- 13.Yo'ldoshev B. Frazelogizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. T.:O'TA.1992.3-son.-B.37-42.
- 2.Solodukho E.M. Theory of phraseologies. - Kazan. 1989. - 265 p
3. “The English language” by [Smith, Logan Pearsall, 1865-1946](#)
- 4.Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2000. – B.47.

5. Akbarova Z.A. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2007. – B.11.
6. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Изв. АН. Сер. Лит. и яз. М.: Изд-во РАН, 1993. Т.52.- №1. - С. 3-9.
7. E.F. Arsenteva “Complex modifications of phraseological units and the ways of their translation” Life and science journal 2004
8. Meaning, Life and Culture - In conversation with Anna Wierzbicka [2020 Anna Wierzbicka](#), [Natural Semantic Metalanguage](#), [linguistics](#), [Semantics](#), [language](#), [Culture](#), [Typology](#), [book](#)
9. Collection “Exploring Child Development” [Richard A. Fabes](#), [Carol Lynn Martin](#) 1991.